

Ўзбекистон Республикаси олий ва урта махсус таълим вазирлиги

Ал - Хоразмий номидаги

Урганч Давлат университети

Табиатшунослик ва География факултети

«Умумий биология» кафедраси

Битирув малакавий иши

403 – гуруҳ талабаси Тажибоева Нодири Бахрамовнанинг

Битирув малакавий иши

Мавзу: Хоразм ваҳаси тупроқ фаунаси тур таркибини

урганиш(Янгибозор тумани мисолида).

Таълим йуналиши «Биология»

Бакалавр даражасини олиш учун

Ўзбекистон Республикаси олий ва урта махсус таълим вазирлиги

Ал - Хоразмий номидаги

Урганч Давлат университети

Табиатшунослик ва География факултети

«Умумий биология» кафедраси

Битирув малакавий иши

403 – гуруҳ талабаси Тажибоева Нодира Бахрамовнанинг

Битирув малакавий иши

**Мавзу: Хоразм ваҳаси тупрок фаунаси тур таркибини
урганиш(Янгибозор тумани мисолида).**

Таълим йуналиши «Биология»
Бакалавр даражасини олиш учун

Кафедра мудири:

к.х.ф.н.Матякубова Ю.А.

Такризчи:

Атожанова Ш.

Илмий раҳбар:

доц. Абдуллаев И.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Kresguldoshlar qandalalarning biologik va ekologik xususiyatini o`rganish nafaqat amaliy, balki nazariy ahamiyatga ega. Qishloq xo`jalik ekinlarini zararkunandalarning xulq atvori va rivojlanishi, soni va tarqalishi tashqi muhitdan ajratgan xolda o`rganib bo`lmaydi.

Kresguldoshlilar qandalalariga harorat va ozuqa kresguldosh o`simliklar ta`sirini o`rganish zararkunanda biologiyasi va ekologiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramasdan, O`zbekistonda kresguldoshlilar qandalalar biologiyasi va ekologiyasi hozirgi kungacha deyarli o`rganilmagan, bu adabiyotlarda ta`kidlab o`tilgan (Platnikov 1926, Yaxantov 1953). Shuning uchun qandalalar hayotiy siklining turli bosqichlarda tarqalishi, oziqlanishi, rivojlanishi, lichinkalarning yashovchanligi va imoga mahsuldorligi nuqtai nazardan ularga harorat va ozuqaga o`simliklarning ta`sirini o`rganish talab qilinadi.

Shu bilan birga kresguldoshlilar qandalalarning oziqlanishi karam o`sisini rivojlanishi sifatiga va hosildorligiga ta`sirini o`rganish, qandalalar soni karamda bo`lish vaqti va qandalalarning Xorazm vohasi sharoitida ekinga ko`chish davrida karamning rivojlanish fazasida zararlilik koeffitsiyentini aniqlash zarur bo`ladi.

Entomofaglarining, shu jumladan tuxumho`rlarning tur tarkibini va kresguldoshlilar qandalalarning tuxumlarini parazitlar- tuxumho`rlar bilan zararlanish darajasini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadda tuxumho`rlar rivojlanish davomiyligi, urg`ochilarning jinsiy maxsuldorligi, jinslarning nisbati va ularni kresguldoshlilar qandalalari bilan biologik kurashdagi samaradorligini aniqlashga ham zaruriyat tug`iladi. Kresguldoshlilar qandalalarining xo`jalik ahamiyati baholanadi.

Hozirgi kunda o`simlikni himoya qilish masalasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Har bir fermer qishloq xo`jalik mutaxasisi xozirgi zamon talabi darajasida o`simliklarning zararkunandalarini aniqlay bilishi, unga qarshi kurash olib borishi va hosilni saqlab qolishni bilishi zarur.

Ayniqsa Xorazm viloyatida sabzavot va poliz ekinlari ko`plab ekiladi. Xorazm viloyatida yaxshi iqlim sharoitida su`niy sug`orish yo`li bilan turli hil sabzavot ekinlari o`stiriladi va yuqori hosil olinadi. Ko`pgina sabzavot ekinlari qatorida karam o`simligini ahamiyati katta, lekin Respublikamizda sabzavot ekinlari qatoriga kiruvchi karam o`simligiga e`tibor orqada qolmoqda. Ochiq tuproqda yetishtiriladigan sabzavot ekinlarining eng asosiy turlaridan biri oq karamdir. Karam o`zining oziqlilik va xo`jalik ahamiyati, ba`zi navlarning qishda yaxshi saqlanishi, taransportga ortilishi va tushirishning yengilligi, boshqa sabzavot ekinlaridan farqlanuvchi biologik xususiyati jihatdan muhim hisoblanadi.

Karam oziq sifatida turlicha- yangi paytda, tuzlangan va quritilgan, konserva qilingan xolda iste`mol qilinadi. Bundan tashqari karam o`zining shifobaxsh xususiyatlari bilan qimmatlidir. Undan yurak-tomir kasalliklarini davolashda keng foydalaniladi, sharbati esa oshqozon yarasini davolashda ishlatiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

Tadqiqotning asosiy maqsadi karamdoshlar oilasida uchrovchi zararkunanda hasharotlar to`g`risida umumiy ma`lumot to`plash, hamda eng ko`p zarar yetkazadigan kresguldoshlar qandalasini biologiasini o`rganish.

Buning uchun quyidagi vazifalarni amalgam oshirish lozim bo`ladi.

- Zararkunandalarning o`rganish tarixi bilan tanishish;
- Xorazm vohasi karamguldoshlilar qandalalarning biologik va ekologik xususiyatini o`rganish;

- Adabiyotlar sharxi

1.1 Markaziy Osiyo qandalasi (*pyrrhoconis apterus*) o`rganish tarixi va hozirgi holati.

Birinchi marotaba bog`dorlik, dalachilik, sabzavotchilik va polizchilik tarqalib zarar ko`rsatayotgan harakatlarni Turkistondagi aniqlanganligi haqida 1914-1915 yillarda V.I. Plodnikov va I.V. Vasilyevlar tomonidan ma`lum qilindi.

Asrimizning 20-yillarida zoologiya sohasida asosiy tadqiqotlar yangi tashkil etilgan Turkiston universitetida olib borildi. T.Z. Zohidov qizilqum hayvonlari ekologiyasini o`rgandi va zoologiya soxasida bir qancha yirik asarlar yozdi. V.V. Yaxantov (1899-1970) va R.O. Olimjonov hasharotlarni, S.N. Alimhammedov zararkunanda bo`g`imoyoqlilar va boshqa olimlarimiz ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

XX asrga kelib hayvonot dunyosini o`rganish rejali asosda va kompleks ravishda olib boriladigan bo`ldi.

Karamguldoshlar oilasi vakillariga ega ko`p zararkunandadan biri bo`lgan qandalalarning zararkunandaligi haqida ma`lumotlar K. Linney (1760) ishlarida birinchi marta qayd qilingan. Raps qandalasi *E. oleracea* ning G`arbiy Sibir teritoriyalariga keltirgan jiddiy zarari haqida ilk bor M.R. manbalarda Rossiyaning o`rta qismlari, ayniqsa Leningrad, Novgord, Omsk viloyatlari va Altay o`lkasi ko`rsatiladi. 1939-1941 yillarda Raps qandalasining Leningrad o`lkasi ommaviy ko`payishi kuzatiladi, buning natijasida sabzavotchilik xo`jaliklariga jiddiy zarar yetkazadi. I.D. Shapiro (1948) ma`lumotlariga ko`ra Leningrad viloyatida raps qandalasining zarari natijasida 1500 gektar karam maydoni nobud bo`ldi.

M.B. Petropavlovskiy (1957) yozishicha G`arbiy Sibir hududida joylashgan Barnaul shaxri atrofidagi tajriba stansiyasida 1944 yilda Raps qandalasi karamu rug`liklarida juda ko`pmiqdorda paydo bo`lgan, ular 1,5 gektar maydondagi karam to`liq yo`q qilingan. Bunda bitta o`simlikda 1000 donagacha qandala topilgan.

A.S. Serebryakov zararkunanda hasharotlarni o`rganib ularga qarshi kurashning genetic usuliga asos soldi. Hozirgi O`rta Osiyo, jumladan O`zbekiston hayvonot dunyosini o`rganishga uzoq davr mobaynida juda kam e`tibor berilganligini ko`rsatdi. Bu soxadagi maxsus tadqiqotlarni faqat XIX asrning ikkinchi yarmida N.A. Seversov boshlab berdi. U o`z sayohatlarida orol dengizi, Usyurt, Qizilqumning shimoli, Sirdaryo, Tyanshan, Pomir tog`lar hayvonlarini va tabiatini o`rgandi. O`rta Osiyo hayvonot dunyosini o`rganishda tabiatshunos olim A.P. Fedchenko xizmatlari ayniqsa katta. U 1868-1871 yillarda Oloy va Zarafshonda o`tkazgan ekspeditsiyalarida 4000 hayvon turi (asosan hasharotlar) ni o`z ichiga oluvchi 20 000 ga yaqin kolleksiya to`pladi. Uning birgina Zarafshon vodiysining yuqori qismida olib brogan tekshirishlarida 1000 dan ortiq hayvon turi yig`ilgan.

A.P. Fedchenkoning zamondoshi V. F. Oshonin (1844-1945) Oloy vodiysi, Zarafshon va Turkiston tizma tog`lari va Pomir tabiatini tekshiradi, Amudaryoning yuqori qismida tarqalgan hasharotlarni o`rganadi. V.F. Oshoninning tashabbusi bilan 1876 yilda Toshkentda tabiat muzei tashkil etildi. U “Turkiston chala qattiq qanotlilar faunasining zoogeografiyasi” (1891) kitobida 700 dan ortiq hasharotlar haqida ma`lumot beradi.

Shuningdek, O`rta Osiyo zararli hasharotlarini aniqlash va ularga qarshi kurashni tashkil qilish 1911 yilda Toshkent, Turkiston entomologic stansiyasi tashkil etilgandan keyingina boshlandi.

Zararkunanda hasharotlarning o`rganishning nazariy sohasini rivojlantirishda I/A. Porchinskiy, N. A. Xolodkovskiy, G.G. Yakobsan, V. P. Pospelov, N.Ya. Kuznesov va boshqa olimlarning ro`li nihoyatda kattadir.

O`zbekiston entamologiya fanining rivojlanishida V.I. Plodnikov, V.P. Neveskiy, V.V. Yaxantov, R.A. Olimjonov, E.I.Gan, S.N. Alimuhammedov, Qodirova kabi olimlarning ham hissasi katta.

V.V. Yaxantov tomonidan yozilgan “O`rta Osiyo qishloq xo`jaligi zararkunandalari” (1953) “Hasharotlar ekologiyasi”, R.Olimjonov tomonidan yozilgan “Entomologiya” (1977) kabi darsliklar respublikamizda hasharotlar to`g`risidagi fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo`ladi.

1924-1925 yillarga kelib Respublikamizning ayrim viloyatlaridagi hasharotlarning qaysilari qanday o`simlikka ziyon yetkazish va bu zararkunandalardan ekinlarni himoya qilish soxasida qilingan ishlar yakuni 1926-1929 yillarda I.V. Pladnikov, V.V, Yaxantov va V.P. Nevshiylar tomonidan birinchi marta kitob holida nashr etildi. Shu tariqa Respublikamizning har bir viloyatida hasharotlarni paxta, beda, makkajo`xori, poliz ekinlari va ularga qarshi kurashuvchi, o`simliklarni himoya qilish tashkilotlari tuzilgan.

V.V. Yaxantov yovvoyi tunlam, g`o`za tunlami, beda tullami, E.N. Ivonov yovvoyi tunlam, unlov tunlamini (1944) biologiyasi va ekologiyasini o`rganish borasida muhim ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xantal qandalasi – E. ornata (E. festiva) ning zararkunandaligi haqida birinchi ma`lumotini V.Yaxantov (1875) ishlarida uchratish mumkin., unga ko`ra 1861 yilda qandala Saratovda karamlarni paymol qilgan.

Xantal qandalasining zararkunandaligi haqidagi ma`lumotni shuningdek, N.N. Bagdanov-katkov (1925), Stavrapal o`lkasi uchun Y. GRINOV (1975) quyi Volga uchun N. Saxarov (1914-1925) Ya.T. Shuner (1925), Krasnadar o`lkasi uchun N.N. Suxarikov (1953) va R.D. Shapiro (1951) Sibir va Oltoy o`lkasi uchun M.B. Petropovlovskaya (1957) O`rtaOsiyo uchun Plotnikov, A.E. Rodda, V.V. Gussakovskiy va Yu.K. Antova (1933), V.V. Yaxontov (1953) G.S. Bronshteyin (1957) va P. To`ychev (1972) ishlarida ham uchratish mumkin.

Yu. Grinyev (1925) takidlashicha Stavrapol o`lkasida xantal qandalasi karamning juda jiddiy zararkunandasi bo`lib ayniqsa uning 4-5 oshli kurtlarijuda xavfli hisoblanadi. Qandalalar so`rgan barglar qurg`oqchilikdagi kabi qurib qoladi va o`simlik rivojlanishdan deyarli to`xtaydi.

A.N. Savenkov (1945) ko'rsatishicha Kolimada shimoliy kresguldoshi qandalasi *E. donimules Scop* katta zarar yetkazadi. Karam o'simliklari urug'palla fazasida o'simlikda 7-10 dona qandala bo'lganda nobud bo'ladi.

Xozirgi kungacha *E. morocandia* osh qandalasining zarari haqida to'liq harakteristika berilgan ma'lumotlar adabiyotlarda berilmagan. Ushbu qandalani zarari haqida oz va noto'liq ma'lumotlarni V. Plotnikov (1926), Z.Ye. Morsh Romonova (1937), V.V. Yaxantov (1926), S.G. Branshteyn (1957) ishlarida uchratish mumkin. Oxirgi muallif keltirgan ma'lumotlarga ko'ra 1945-1956 yillarda Samarqand viloyatining Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlarida ushbu turning ommaviy ko'payishi va buning oqibatida karam hosilini to'liq nobud bo'lishi kuzatilgan.

Karamguldosh qandala *E. wilkinsi* Dist qandalasining zararkunandaligi E.Meyrmanov (1959) ishlarida, karam zararkunandasi sifatida ko'rib o'tilgan. Qandalalarning so'rishi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini to'xtatadi, shikastlangan barg so'ladi, quriydi. *E.wilkinsi* bilan zararlangan karamning o'sishi 8-35 % past bo'ladi.

II BOB. Tadqiqot o`tkaziladigan joyning geografik tasnifi, tadqiqot materiallari va metodlari.

2.1 Tadqiqot o`tkaziladigan joyning iqlim sharoiti.

Xorazm vohasi O`zbekiston Respublikasining shimoliy g`arbiy qismida joylashgan bo`lib, u Amudaryo chap qirg`og`ining bir qismini egallaydi. 30-40<sup>o</sup>C va 42 C shimoliy kenglik, 60-62 C sharqiy uzunlik oralig`ida joylashgan. Ko`p yillik ma`lumotlarga qaraganda Xorazm vohasida xavoning yillik o`rtacha harorati 12,5 C issiq bo`ladi. Qishning 3 oyi davomida sovuq bo`ladi. Urganch meteorologik stansiyalarining ma`lumotlariga ko`ra yanvar oyida o`rta hisobda 4.1 darajada, iyul oyida bir kecha kunduz o`rta hisobda 27-28 C issiq bo`ladi. Qish qattiq kelgan ayrim yerlarida sovuq -31-32 C, eng issiq oyda 40-45 C ga yetadi.

Vohada foydali issiqlik harorati 2268-2309 darajadan iborat bo`lib, issiq kunlar davri 201-208 kunni tashkil etadi. Vohada yoz quruq va issiq, kuz nisbatan iliq va quruq, qish deyarli qorsiz quruq va qattiq sovuq bo`ladi. Tuproq 0.3-0.7 metrgacha muzlaydi, bahorda havo o`zgaruvchan bo`ladi, u keskin isiydi va keskin soviydi, ayrim yillarda havo mart oyida qish faslidagiga o`xshaydi. Bir yilda yog`ingarchilik juda kam 70-110 mm gacha bo`ladi. Yog`ingarchilik asosan bahor oylarida bo`lib turadi. Bu yerdagi yog`ingarchilikning sizot suvlarini ta`minlashdagi roli u qadar katta emas. Vohada yilning issiq davrida havoning namligi past bo`ladi. Yoz faslida uning nisbiy namligi kunduz soat 13 da 30 % gacha va undan ham kamroq tushadi. Shamolning o`rtacha tezligi sekundiga 3-4 metrga yetadi. Bug`lanish miqdori 13,83 mm dan iborat bo`lib, ayrim yillari 2000 mm gacha va undan ham oshib ketishi kuzatilgan geografik joylashuviga ko`ra tuprog`i asosan bo`z tuproq bo`lib, bugungi kunda Orol dengizining quriy boshlashi sababli ko`pchilik joylarda tuproq sho`rlangan. Vohaning qadimdan ekin ekib kelayotgan yerlarining qalinligi 1-3 metrdan iborat qumli tuproqdan, loy tuproqgacha bo`lgan cho`kindilar bilan qoplangan, allyuvial cho`kindilari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Allyuvial kompleksi filtrlash koeffitsientining quyidagi ahamiyati bilan ifodalaniladi. Jins tarkibining koeffitsienti mayday donador qum tuproqda 0,5-0,7 mm ga teng. Botqoqli tuproq yerlari Amudaryoga yaqin yerlarda uchraydi, bu joylarda yer osti suvlari 1,5-1 metr chuqurlikda uchraydi.

Vohaning deyarli barcha joylarida sug`orma dehqonchilik qilinadi, bugungi kunda Orol dengizining quriy boshlashi oqibatida yerlarni ko`pchilik qismi sho`rlangan. Shu sababli kuzda va bahorda ekinzor yerlarini suv bilan yuvish ishlari amalga oshiriladi.

O`simliklar qoplami umumlashgan harakterga ega bo`lib, bitta maydonda bir necha o`simlik turi uchraydi. Sug`oriladigan yerlarda sizot suvlarning sho`rlanish 1,0-10,0 matr atrofidagi chuqurlikda 1 litr suv tarkibidagi tuzning miqdorini o`rganib, 0,6-1,2 grammdan 0,8-2,2 grammgacha. 10 metrdan ortiq chuqurlikda 4,5 grammga yetadi. Turli darajadagi madaniy sho`r tuproqli yerlar sug`oriladigan yerlar maydonining katta qismini 75-80 %ni egallaydi.

Xorazm vohasida termitlar sho`r tuproqli joylarda suv kalliktorlarida va qabriston atroflarida ko`proq tarqalgan. Ular koloniya bo`lib, tuproq ichida inlar hosil qiladi va kechqururlari uya atrofidagi o`simliklarni loy suvoq bilan o`rab qishga ozuqa to`plashadi. Tabiiy sharoitda yozning issiq kunlari ertalab uya atrofidagi o`simliklarda yangi namli loy suvoqlar borligi kuzatiladi. Vohada qishning qattiq sovuq bo`lganligi tufayli termitlar uyaning 1-1,5 metr chuquriga ketadi.

Qoraqolpog`iston respublikasining Ellik qal`a tumani Amudaryoning quyi qismida joylashgan bo`lib , unga sharq va janub tomonlardan Qizilqum cho`llari , g`arbdan Xorazm viloyati Elliqal`a tumani hududi relef hususiyatlarga ko`ra, bir xil ko`rinish kasb etuvchi past tekislik bo`lib, ba`zan uncha baland bo`lmagan tepaliklar uchraydi. Arktika hamda qutubiy sovuq havo oqimlarning ko`rib kelishiga to`sqinlik qilolmaydi. Qor qoplami juda tez erib ketadi. Shu bois ba`zan tuproq qatlami chuqur muzlaydi. Yoz issiq va quruq sovuqsiz kunlar 201-205 kun bo`lib, bu paytda o`rtacha harorat +15 C dan yuqori bo`lgan kunlar miqdori 165-166 kunni tashkil etadi.

Tadqiq etilayotgan hududning iqlimiga xos bo`lgan xususiyatlardan ya`na biri yanvarning o`rtacha harorati -6,3 C , iyulning o`rtacha harorati esa +28,8 C dan iborat. Bahorning nisbatan past harorat kasb etishi hamda iliq bahorning quruq va issiq bahor bilan tutashib ketishi tabiiy namlikning yetishmasligi hamda uning boshqa factorlar bilan uzviy birligi ham qayd etilganidan o`ziga xos cho`l tuproq qatlamini tashkil topishiga sabab bo`ldi. Shu boisdan ushbu hududda o`tloq, o`tloq botqoq, taqir o`tloq tuproq turlari tarqalganligini ko`ramiz.

Respublikamiz iqlim sharoiti karam o`stirish uchun nihoyatda qulay shuning uchun ham o`tgan asrning 80-yillarida respublikamizda karam maydonlari 609,27\ ming hektarni tashkil etgan. Ammo so`ngi yillarda karam yetishtirishga notog`ri munosabat bo`lganligi tufayli uning umumiy maydoni keskin qisqarib ketdi.

Tadqiqotlarimiz amalgam oshirilgan hududlarda begona o`tlarning 400 ga yaqin turlari tarqalgan bo`lib, ular ekin orasidagi joylarda uchraydi.

Karam agrobiotsenozida qayd qilingan karam bitlari qandalalar, to`g`riqanotlilar, qattiq qanotlilar, tunlamlar singari zararkunandalarning asosiy manbai hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda bunday manbalarda entamofaglar to`planib, nafaqat fitofaag hisobiga parazitlik va yirtqichlik qilib ko`payishda nektarli begona o`tlar gullash davrida zararkunandalar tabiiy kushandalarning asosiy qo`shimcha oziqlanishi muhiti ham hisoblanadi.

Havo haroratining o`zgarishi va nektarli o`simliklar miqdoriy soniga qarab zararkunandalar tabiiy kushandalarning faollik holatini aniqlashga va ularni muhofazalash ishlari amalgam oshirishga yordam beradi.

2.2 Tadqiqot materiallari va metodlari.

Kresguldoshlar oilasidagi eng ko'p ekiladigan bu karam hisoblanadi. Shuning uchun biz tadqiqot ishlarimizni karam o'simligida ko'rdik.

Xorazm viloyatida ko'pgina fermer xo'jaliklarida karamning turli navlari yetishtirilib hosil olinmoqda. Kuzatishlar natijasida karam Ellikqal'a tumanda, Urganch tumanida, Qo'shko'pir tumanlarida ko'proq ekilar ekan.

Hozirgi kunda Ellikqal'a tumanida Qilchinoq fermerlar uyushmasi, Yangi yer fermerlar uyushmasida Urganch tuman Amir Temur fermerlar uyushmasida karamning ko'pgina navlari yetishtirilgan. Tumanlardagi fermer xo'jalikda karamning 4 ta navi eng ko'p ekiladi.

Zararkunandalardan eng ko'p zarar yetkazadigan hasharot bu qandalalar hisoblanadi.

Karamning o'sish va rivojlanish templarda va hosilga qandalalarning ta'siri va uning zararlilik koeffitsientini soniga bog'liqligini aniqlash maqsadida biz tajriba maydonida 50 ta erta pishar va 50 ta kech pishar navlar ya'ni karam navlari tanladik, ular bir xil (tuproq, sug'orish rejimi va hakoza) sharoitda qandalalarning tabiiy hajmi davrida bir xil rivojlangan edilar.

O'simliklarning qandalalar bilan zararlanish darajasi erta pishar uchun 4 balli va kech pishar uchun 3 balli sistema baholanadi. Bir balli bilan tajriba boshida har o'simlikda 3 qandala bor, ikki balli bilan 6 qandala, uch balli bilan erta pishar karamda 2010 yilda 12 tuxum va 2011yilda 24qurt kech pishar nav uchun 12 qandala bo'lgani qabul qilindi. Tajribalar 5 qaytariqda olib borildi.

O'simlikka boshqa zararkunandalar hajmini yoki kresguldoshlar qandalalari yirtqichlari va parazitlari tushishini oldini olish uchun har bir tajriba o'simlik doka yopqich bilan qoplanadi, erta pishar karam uchun 60x60x70 sm, kech pishar uchun 75x75x115 sm bundan tashqari doka yopqichlar karamning rivojlanishi o'sishi va hosilga ta'sirini aniqlash maqsadida biz 5 ta qandalalar bilan zararlangan o'simliklarni doka qoplagich bilan qopladik yana 5 tasi esa dokasiz qoldirildi.. xar bir o'simlik raqamlandi.

Har ikki kunda izolyatsiyalardan ozod, o'simliklardan cho'tka yordamida barcha o'simlikho'r hasharotlar olib tashlanadi. Qandalalar o'lishi kuzatilganda ularning soni keyin to'ldirildi.

Qandalalarning zararkunandalik faoliyati davomiyligi 2010 yilda ertapishar karamda 50-56 kun 2011 yilda 70-75 kun davom qilgan tajriba tugagach o'simliklar o'lchab ko'rildi. Butun massaning og'irligi va sifati aniqlandi. Kresguldoshlilar qandalalarining urug'lik karam hosiliga ta'siri olib borildi.

Urug'lik karamda olib borilgan tajribaning dastlabkidani farqi, karam gullaganda uning izolyatorlari hasharotlar yordamida chetdan changlanishni amalgam oshirish uchun olib borildi.

Dastlabki izolyator va qandalalar pastki gullagan novdalardan yuqoriga olib turiladi. Gullash tugagach izolyator va qandalalar o'z o'rniga qaytariladi. Ochiq gullayotgan novdalar har kuni boshqa zararkunandalardan tozalanadi.

Turli darajada zararlangan va nazorat o'simliklardan yig'ilgan urug'lar o'lchab boriladi. Erta va kech pishar karamdan shikastlanganlik darajasi quyidagicha topiladi:

$$Q = (a*b)*100/ a$$

Bu yerda: a- sog'lom o'simlik hosili;
b- shikastlangan o'simlik hosili;
Q- zararlanish darajasi;

Karam hosili zararkunandalar bo'lmaganida hosilga nisbatan yo'qotilishini ham foizda VIZR instruksiyasi talablariga ko'ra quyidagi formula bilan aniqladik.

$$C = Q-P/100$$

Bu yerda : Q- berilgan zararlanish darajasida zararlanish koeffetsenti;
P- ushbu darajada amalda zararlangan o'simlik foizi;
C- hosil yo'qotilishi foizlari;

Berilgan dalalarda karam hosilini yo'qotishini absolyut raqamlarda aniqlash uchun yuqoridagi instruksiyani talabiga binoan quyidagi formula bilan aniqladik.

$$X = \frac{a \cdot M \cdot C}{100}$$

Bu yerda:

- a-zararlanmagan o'simlik hosili
- M-berilgan maydondagi o'simliklar soni
- C-hosil yo'qotilishi foizlarda
- X-hosil yo'qotilishi absolyut raqamda

Krestguldoshlilar qandalalarining biologiyasi va ekologiyasini biz laboratoriya, laboratoriya dala va dala sharoitlarida o'rgandik.

2010-2011-yillarda dala tajribalari Xorazm viloyati Urganch tumanidagi "Odilbek", "Gulruhbegim", "Oltinqal'a" va Qoraqalpog'iston respublikasi Ellikqal'a tumani "Zaripboy", "Azamat" fermer xo'jaliklari dalalaridan olib borildi.

Laboratoriya ishlari Urganchda olib boriladi. Krestguldoshlilar qandalalarining rivojlanish sikllari bo'yicha ma'lumotlar bir vaqtning o'zida Xorazm viloyati Urganch tuman va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani karam maydonlari uchun olingan.

2010-2011-yillarda madaniy krestguldoshlilar o'simliklarda krestguldoshlilar qandalalarining soni dinamikasi (Faniloti 1971) 100 ta krestguldoshlar haftada bir marta kuzatib aniqlanadi: bunda madaniy o'simliklar dala dinamikasi diaganali bo'yicha kuzatiladi. Voyaga yetgan qandalalar, barcha yoshdagi qurtlar, tuxumlar soni qayd qilib boriladi.

Qandalalarni qayd qilish mart oxiridan noyabrgacha ya'ni uyg'onishdan qishlashga ketguncha davom qildi.

Krestguldoshlilar qandalalarning avlodlar soni ularning ayrim avlodning rivojlanish davomiyligi (Dabrolskiy usuli 1969) ayrim avlodlar urg'ochilarning serpushtligi tuxumlarning rivojlanish davomiyligi turli yoshdagi qurt bosqichlarini aniqlash laboratoriya, dala sharoitlarda va marlyali sadochkalarda (Kojanchikov usulida (1937-1961). Ilyarova 1966 va Molis 1962) o'rganilgan jami tabiiy sharoitlarda har bir turning ayrim avlodlari uchun 10 tajriba qo'yilgan.

Har sadoqqa bir juft yangi uyg'ongan yoki tullagan qandalalar (urg'ochi va erkak) joylanadi. 5 tajriba madaniy krestguldoshlilarda va 5tasi yovvoyi kerstguldoshlilarda o'tkaziladi.

Har kuni izolyatorlar vaqtincha olingan va tuxumlar soni sanalib, qo'yilgan tuxumlar olib tashlangan agarda tuxumlar embrional davomiyligini o'rganish uchun qoldirilsa tuxum qo'yilgan joyi belgilangan va qandalalar boshqatdan joyiga qo'yiladi. Dala jurnalida tuxum qo'yilgan, qurtlar chiqqan, tullagan va voyaga yetgan individlar, o'lgan sanalar qayd qilinib boriladi.

Urg'ochilarning serpushtligi tuxum va qurtlarni turli yoshdagi bosqichlari davomiyligini aniqlash maqsadida laboratoriy sharoitida qandalalar va ularning qurtlari nomerlangan yarim litrlik bankalarda tarbiyalanadi. Qurtlar olish uchun bankaga tuxumlar qo'yiladi. Qandalalar va ularning qurtlari kunda ikki marta krestguldoshlar barglari bilan oziqlanadi, har kuni eski oziq olib tashlanadi, qo'yilgan tuxumlar va qurtlar tullashi qayd qilinib boriladi.

Laboratoriya sharoitida krestguldoshlilar qandalasining rivojlanish tezligiga haroratning ta'siri o'rganiladi. Buning uchun qandala tuxumlari va qurtlari haroratli termostatlarga joylanadi. Tajriba 5 qaytariqda, 170-200 va 300C da olib boriladi. Har bir tajribada 5ta tuxum to'plami (60 tuxum) va 50 ta qurt ishlatiladi.

Olingan natijalar asosida krestguldoshlilar qandalasining rivojlanish giperbolasini chiqarish mumkin.

Rivojlanish chegarasi I. V. Kojanchikov (1961) formulasidan foydalaniladi:

$$C = \frac{t_1 \cdot T_1 - t_2 \cdot T_2}{t_1 - t_2}$$

Bu yerda:

C – rivojlanish chegarasi

t – rivojlanish uchun son

T – hasharot rivojlanishi uchun olib borilgan harorat

Issiqlik doimiysi va haroratning effektiv summasi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$t_1(T_1 - C) = X$$

Bu yerda:

X – issiqlik doimiysi

T – rivojlanish tugagan harorat

t – rivojlanish banka soni

Laboratoriya sharoitida qandalarning xulqiga haroratning ta'siri-100dan 150C gacha oraliqda amalga oshiriladi. Tajriba vaqtida qandalalarning insektoriga joylashtirildi, tajriba boshlanishida har bir insektorga har kunda 25 ta voyaga yetgan qandala joylashtiriladi. Insektoriyalarda tajriba vaqtida joylashishlari uchun bir nechta redis shoxlari solinadi. Tajribalar besh tariqda olib boriladi.

Xona haroratdagi insektoriy (200-250C) sovutgichda ochiq eshik bilan joylanadi va 30 minutdan keyin eshiki yopilib harorat -100C gacha olib boriladi.

Haroratning o'zgarishi sovutgichni eshigini ochish bilab amalga oshiriladi, banda insektoriy laboratoriyadan kiradigan havo oqimidan faner list bilan to'silgan edi. Keyin sovutgich harorati rostlagich bilan o'zgartirilgan. Sovutgichdagi harorat va namlikni aniqlash uchun haromatr, gigrometr va barometr joylanadi. Tajriba vaqtida qurilma havoning 45-55% nisbatan namligini ko'rsatadi.

21 dan 550C gacha harorat oralig'ida qandalalarning tekshirish shisha eshikli termostatda olib borildi, bu esa qandalalarni eshikini ochmasdan kuzatish imkonini beradi. Qandalalarning harorat oshishiga reaksiyasi vizual aniqlanadi.

Dala sharoitida kuzatuvlar Urganch davlat universiteti tajriba maydonlarida qishlagan qandalalar sovuq qotishdan chiqib, boshlagach yerqalampirining tanlanishiga *E. maracandia* uyg'ongan paytda u yetarlicha rivojlangan bo'lishi sabab bo'ldi. Qandala uyg'ongach darxol yerqalampiriga xujum qiladi. O'simlik ustidan marlyali izolyator bilan qoplanadi, o'simlik atrofida o'tgan yilgi burglar tashlanadi. Sadoq haroratini o'lchash uchun haftalik gigragraf va terniograf joylanadi. Qandalalarning xulqi doimo kuzatiladi.

Ikkala tur voyaga yetgan qandalalari va ularning qurtlarini xulqi ushbu qandalalar bahorda kress-salatda va yozgi vaqtda karamda kuzatiladi.

Kuzatuv uchun 10ta eng ko'p qandala tutgan o'simliklar tanlanadi va ularda har bir turning voyaga yetgan qandalalari va ularning qurtlari sanab chiqildi. Kuzatuvlar Urganch davlat universitetida tajriba maydonida olib borildi.

Karamguldoshlilar qandalasining qishlash joyini aniqlash quyidagicha olib boriladi: kechki kuz va erta bahorda qishlash joylari aniqlanadi, buning uchun tuproq sirtidagi o'simlik qoldiqlari, tuproq darz ketishlari va ularning sirt qavatini ko'zdan kechirildi. Kuzatuvlar maydoni 0,16m² bo'lgan, dalalar va bog'larda shaxmat tartibida, yo'l chetlarida va kanallar boyida chiziqli joylashgan maydonlarda olib borildi. Jami har yili 100 ta tajriba maydoni ko'zdan kechirildi.

Qandalalarning dala sharoitida ozuqaviy ixtisoslashuvini aniqlash uchun turli stansiyalarda kuzatuvlar olib borildi, hafta bir marta martning oxiridan qandalalar tabiatda yo'q bo'lguncha kuzatiladi.

III. Bob. Markaziy Osiyo qandalasi (*pyrrhoconis apteres*)ning biologik va ekologik o'ziga xosliklari.

Krestguldosh qandalalarining biologiyasi va ekologiyasi asosiy tomonlarini o'rganish nafaqat amaliy, balki kata nazariy qiziqishga ega.

Qishloq xo'jalik zararkunandalarining rivojlanishi va o'zini tutishi, soni va tarqalishini tashqi muhit omillaridan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik zararkunandalariga shuningdek, krestguldoshlilar qandalalariga qarshi kurash choralarini ratsional tizimini ishlab chiqarishda ular haqidagi biologik va ekologik ma'lumotlar kata ahamiyatga ega.

Krestguldosh qandalalarining hayotiga harorat va oziq o'simliklarning ta'sirini o'rganish zararkunandalarining biologiyasi va ekologiyasida muxim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun krestguldoshlilar qandalalarining tarqalishi, oziqlanishi, rivojlanishi, qurtlarining tirik qolishi va imogalarning ayrim hayotiy sikllarda serpushtligi nuqtai nazaridan ularga haroratning va oziq o'simliklarning ta'sirini chuqur o'rganish zarur bo'ladi.

Shunga qaramasdan Markaziy Osiyo qandalasi biologiyasi va ekologiyasi deyarli o'rganilmagan edi.

Raps qandalasi haqida ayrim ma'lumotlar ayrim mualliflar (Bogdanov-Katkov, 1925; Mamaev, 1929; Bey Beyenko, 1928, 1941, 1955; Sheglov, 1960; Maria-Ramonova, Bojkov, Davidov 1941) Ushbu turlarning biologiyasi alohida M. I. Xlebnikov (1923-1925) Tomsk viloyatida va I. D. Shapiro (1947) Leningrad viloyatida o'rganganlar.

Xantell qandalasi (razeekrashniy klop) bo'yicha ishlar sobiq ittifoqning Evropa qismida (saxarov 1914, 1947, Grinev, 1925, Shapiro 1951, Suxorikov 1953 va boshqalar) va Altay o'lkasi hamda Sibirda (Petropavlovskaya, 1956) olib borildi. Xantell qandalasi biologiyasi N. A. Saxarov (1914-1939), N. N. Suxolikov (1953) va R. D. Shapiro (1948) ishlarida ko'rib o'tilgan.

Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) biologiyasi va ekologiyasi haqida deyarli to'liq ma'lumot yo'q, bunda I. V. Plotnikov (1926) va U. G. Bronshteyn (1957) ishlari bundan mustasno, ular da mualliflar Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

3.1 Qandalalarning qishlashdan bahorgi uyg'onishi.

Karamguldoshlilar qandalalarinig O'rta Osiyo va Qozog'istonda paydo bo'lish zonalari haqida ma'lumotlar juda kam, deyarli yo'q. Samarqand viloyatida Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) mart boshida paydo bo'lishi qayd qilingan. (Bronshteyn 1957)

Bizning kuzatishlarga ko'ra Xorazm vohasida Karamguldoshlilar qandalalari martning uchunchi dekabrisida va aprelning boshlarida paydo bo'ladi. Xorazm vohasida iqlim sharoitlariga, ayniqsa haroratga bog'liq ravishda qandalalarning qishlagan avlodining paydo bo'lishi turli yillarda turlicha bo'ladi.

Urganchda turli yillardagi iqlim sharoitlarni taxlil qilish ko'rsatishicha, Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) o'rtacha kundalik harorat 100C dan yuqori bo'lganda paydo bo'ladi.

Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) ning eng erta uchushi 2010-yilda 20-martda, eng kech uchishi esa 2011-yilda 25-martda kuzatilgan.

2010-yil bahorda o'rtacha kundalik harorat 2,4dan 7,90 atrofida bo'ladi, o'rtacha maksimallik esa 16,0dan 23,00gacha ko'tariladi. 14-martdan 20-martgacha Urganchda issiq ob-havo bo'lib, o'rtacha kundalik harorat 19martda 17,40 maksimallik esa 29,30 tashkil qiladi. Shuning uchun 21-martda Markaziy Osiyo qandala (pyrehoconis apterus)ning yagona uchishlari kuzatildi. Ammo bu davrda qandalaning asosiy massasi hali qishlashdan uyg'onmagan edi. Keying kunlarda ob-havo keskin soviydi va uchishlar deyarli to'xtadi. 29-martdan ya'ni isish boshlanib keyinchalik u barqaror qizishga olib keldi. Dekada bo'yicha o'rtacha kundalik harorat 16,10C maksimum esa 29,30 ni tashkil qildi. 3-apreldan Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) ning ommoviy uchishi boshlandi.

2010-yilda bahor erta keldi, martning ikkinchi dekadasida o'rtacha kunlik harorat 13,20, maksimal esa 26,00C ni tashkil qildi. Martning keying kunlarida harorat 19,30C gacha, maksimal esa 28,90C gacha ko'tarildi.

Urganchda Markaziy Osiyo qandalasi (pyrehoconis apterus) ning yagona uchishi o'rtacha harorat 13,20 bo'lgan 20-martda kuzatiladi.

2011-yilda martda ob-havo salqin bo'lib, o'rtacha kunlik harorat 100C atrofida bo'ldi va faqat martning oxirida bu ko'rsatkich 11,60V ni tashkil qildi. Aprelning birinchi dekadasida o'rtacha harorat 16,10C gacha ko'tarildi. Bunda Markaziy Osiyo qandalasi (*pyrehoconis apterus*) ning yagona uchishlari 25-martda kuzatildi.

Bizning kuzatuvlarga ko'ra hali karamguldoshlarga uchib o'tmasdan qishlagan qandalalar quyoshli kunlarda havo qizigan sari barg ostlaridan chiqadilar, sovuganda esa ya'na barg ostiga kiradilar.

Hazon to'shamasi qizigan sari ularning bunday chiqishi tezlashadi, o'tgan yilgi o'simliklar qoldiqlari ustida o'rmalab yurishadi va uchib boshlaydi.

Urganch rayon sharoitida qandalalar martning oxiri va aprelning boshida ko'p vaqtini hazon to'shalmalar ostida o'tkazadilar.

O'rtacha kundalik harorat 100C atrofida bo'lganda qandalalar kun bo'yi yashirinib o'tiradilar, faqat tushlikda harorat 150C gacha qiziganda chiqadilar. Kuchli shamolli, bulutli kunlari qandalalar butun kun davomida to'shalma ostida bo'ladi. Qandalalarning juftlashishi va tuxum qo'yishi ham shu yerda sodir bo'ladi. O'rtacha kundalik harorat 18-200C va maksimal 24-280C bo'lganda qandalalar to'shalmalarning ostidan ertalabki soat 9-11larda uning ostida harorat 200C gacha bo'lganda chiqa boshlaydi. Shuni ham aytish kerakki, urg'ochilar haroratning ko'tarilishiga erkaklariga qaraganda 2-3 kun kech ta'sirlanib boshlaydilar.

Qandalalar faolligi bu vaqtda asosan kunning eng issiq vaqtida soat 11 dan 16 gacha kuzatiladi. Havo haroratni 220 bo'lganda ular ma'lum vaqt to'shalma ostidan chiqib harakatsiz, quyoshga orqasini qaratib o'tiradi, keyin asta-sekin bir joydan ikkinchi joyga o'rmalab boshlaydilar, o'simlik larni so'radilar va bir o'simlikdan ikkinchi o'simlikka uchib o'tadilar. Qandalalarning to'shalma ostidan ommaviy chiqish soat 12-15 lar atrofida bo'lib, bunda to'shalma ostidagi harorat 240C gacha ko'tariladi.

Kunning bu vaqtida havo harorati 300C gacha qizadi. Bundan haroratda qandalalar juda faol: ular tuproqda o'rmalaydilar, o'simliklarga chiqadilar, oziqlanadilar va juftlashadilar.

Qandalalarning intensive uchishi kuzatiladi unga quyosh nuri katta ta'sir ko'rsatadi, quyosh bulut ortiga o'tganda uchish to'xtaydi. Keyingi to'shalma ostiga kirish soat 16-17 larda kuzatiladi, bundan dastlab urg'ochilari; keyin erkaklari to'shalma ostiga kiradi.

Ikki hafta qandalalar yuqoridagi o'simliklarda va boshqa yovvoyi karamguldoshlarda to'planadi. Agar qandalalar qishlagan joy yaqinida madaniy karamguldoshlar masalan, yerqalampir yoki urug'li karam bo'lsa, qandalalar darxol ularga hujum qiladilar.

Ikki hafta qandalalar yuqoridagi o'simliklarda va boshqa yovvoyi karamguldoshlarda to'planadi. Agarda qandalalar qishlagan joy yaqinida madaniy karamguldoshlar, masalan yerqalampir yoki urug'lik karam bo'lsa qandalalar darx



3.1.-rasm. Merkazey *Oryzandali* (*pyrrhocoris apterus*)
ning kepiogda harakatlenishi.

3.2 Juftlashishi va tuxum qo'yilishi

Qandalalar qishlash joyidan hali to'liq yetilmagan jinsiy mahsullot bilan uchib chiqadi. Erkaklarida urg'ochilariga nisbatan urug'don ertaroq yetiladi va ular qishlashdan keyin darxol juftlashadilar

Ko'pchilik xollarda erkaklari birinchi bo'lib, uchib chiqadilar. Shuning uchun dalalarda ko'p erkaklar uchraydi. Ommaviy uchish davrida jinslar tenglashadi.

Qandalalar qishlash joyidan uchib chiqqach darxol yovvoyi karamguldoshlarga xujum qiladi. Jinsiy mahsulotlarni yetilishi va hayotni saqlab turish uchun qo'shimcha ozuqa zarur. Xorazm vohasi sharoitida qo'shimcha oziqlanish sifatida begona o'tlar (ikotnik, galyavnik kussalot, klopvonik, va juda kam xollarda pastishka, sumka) ayrim xollarda madaniy karamguldoshlilarni (yerqalampir, urug'lik karam) ko'rsatish mumkin.

Issiq ob-havo o'rnatgach, juftlashish davri boshlanadi. Erkaklar bu davrda urg'ochilarni izlash uchun juda harakatchan bo'lib, qoladilar. Urg'ochisini topgach erkaki uning orqasiga chiqib oladi va mo'ylovini urg'ochisining boshidan bir necha marta o'tkazadi. Shundan keyin tezda urg'ochisining ustidan tushadi, bunda oldin urg'ochisining tanasiga ishqalanadi, bunda har tomonga 450 ga chayqaladi, keyin tezda urg'ochisining ustidan tushadi va kopulyatsiya uchun vaziyat egallaydi



3.2 рисм. Markaziy O'ng qandalar (pyrrhocoridae)



3.3-й раз. Личинки и яйца в почве. Пыльчковые

Juftlashayotgan individlarning boshlari bir tekislikda turli tomonda joylashadi. Bogdanov, Katkov (1925) ko'rsatishicha ular ayrim hollarda juft bo'lib, osilib turadi, ammo biz buni ko'rmadik. Kopulyatsiya vaqti soati ayrim vaqtlarda kunlab davom qilishi mumkin. Kopulyatsiya vaqtida qandalalar oziqlanadi, o'simlikdan o'simlikka o'tadi, bunda erkagi urg'ochisi izidan-iziga bosib yuradi. Urg'ochisi erkagidan yirik va kuchli bo'lganligi sababli ularni sudralib yuradilar, agar ularni bezovta qilinsa, juftlik barg ustiga berkinishga harakat qiladilar, ayrim hollarda yerga qulaydilar va birga harakatni davom ettiradilar. Hattoki ularni tutganda ham ajralmaydilar.

Qandalalarning juftlashishi odatda qishlash joylaridan ommaviy uchish vaqtiga mos keladi ayrim hollarda yerga qulaydilar va harakatlanib, bir-birini topadilar. Bahorgi juftlashish havoning o'rtacha kunlik harorati 17-19°C va maksimal harorat 27°C da boshlanadi.

Urg'ochilarning jinsiy mahsulotining yetilish davri katta darajada oziqlantiruvchi o'simliklar tarkibi va sifatiga bog'liq bo'ladi. Ushbu davrda haroratning ko'tarilishi, tuxumlarning yetilishi tezlashtirildi. Qandalalarni bu davrda oziqlanishiga talab juda katta, shuning

2010-2011karamguldoshlilar kandalalarni baxorgi juftlashishi boshlanish sanalari.

Qandala turi	yillar	Juftlashish boshlangan sana	Keltirilgan kunlar unko'rsatkich.o'racha	maksimal	minimal
Purrhoconis apterus	2010	7.04	18.1	24.7	14.1
	2011	4.04	18.1	27.1	17.0

Jadval.3.2.1

Uchun bu davrda ularni zararlighi xan ayniqsa yosh karamguldoshlar nixoyatda yuqori bo'ladi.juftlashgandan keyin bir nech hafta o'tgach qandalalar tuxum qo'yishga kirishadilar.Tuxum qo'yish davrida xulqi va xarakati o'zgaradi:judal rivojlanayotgan tuxumlar sababli urg'ochini qorni kattalashadi.Tuxum qo'yish vaqtida tug'ishi kamayadi.Ommaviy tuxum qo'yish davrining boshida Markaziy osiyo qandalasi (pyurrcocines apterus) tuxumini kun osha mavsum oxirida esa bu oraliq oshib boradi.Odatda tuxumlar karamguldoshlarning barglari va poyalarini pastki va yuqorigi tomonlariga qo'yadi.Yangi tuxum qo'yishdan oldin qandalalar juftlashadi.Ayrim xollarda o'simlik qoldiqlariga va oziq o'simlik yoniga yani tuproqqa qo'yadi.Laboratoriya –dala tajribalarida mayali sadoq o'rnatilgan vegitatsiyalanuvchi o'simliklarda mayaga va sadoq devorlariga qo'ygani kuzatiladi.Laboratoriya sharoitida xam xuddi shunday manzarani kuzatish mumkin . Qandalalar tuxumini mayaga yoki sadoq devoriga qo'yishni avzal ko'radilar.Qayd qilinishicha quruq mayaga qo'yilgan tuxumdan qurt tezroq chiqadi. Tuxumlar ko'pincha ikkita to'g'ri qatorga joylashadi,Xar qatorda 6ta tuxum bo'ladi. Ayrim xollarda tuxumlarni shaxmat tuzilishida joylashtiradi.

Karamguldosh kandalalarning tuxum qo'yishi.

Kuzatuv yillari	Birinchi juftlashish sanasi	Juftlashgandan keying kunlar	Tuxum qo'yishni boshlanish sanasi	Tuxum qo'yish tugagan sana	Harorat ko'rsatkichlari		
					O'rtacha	maksimal	minimal

Pyurhacanis apterus.

2010	7.04	9.04	2	12	19.3	26.3	16.7
2011	4.04	7.04	3	11	20.1	29.1	15.0

Jadval3.2.2

Urg'ochisi odatda bir marta 12 tuxum qo'yadi. Bu odatda bir marta tuxum qo'yishi uning jinsiy apparatini tuzilishi bilan bog'liq. Urg'ochilarni tuxum qo'yishini tabiiy sharoitda xam laboratoriyada xam kuzatish mumkin. Substratga yopishgan urg'ochini qornini gorizantal yo'nalishda xarakatlantirib qinidan chiqayotgan tuxumlarga yopishishi uchun oyoqlari bilan ushlab turadilar. Keyin 2-3min hordiq olgach oxirgi tuxumini oyoqlari bilan paypaslab topadi va yangi tuxum qo'yadi. Tuxum qo'yishda aynan shunday xolat vrednaya cheripashqada xam kuzatiladi. (arnoldi1948, pukkova, pukkova 1956) Karamguldoshlar qandalasini tuxum qo'yishi 25-30min.

3.3 Serpushtligi.

